



TURKIY DAVLATLARNING IQTISODIY VA SIYOSIY HAMKORLIGINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA ZANGEZUR KORRIDORINING ROLI

Karimov Jaloliddin Abulato o'g'li

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi
talabasi*

Annotatsiya: *hozirgi o'qiyotgan maqolangizda muallif dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda hudud masalasi qanchalik muhimligi hamda geosiyosat va geoiqtisodiyot birgalikda davlatlarning rivojlanishi uchun eng dolzarb masala ekanligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *geosiyosat, geoiqtisodiyot, karridor, zangezur, davlat.*

Kirish

Zangezur koridorini tashkil etish g'oyasi Armaniston-Ozarbayjon munosabatlarining tugashi natijasida paydo bo'ldi. 30 yildan beri davom etgan Armaniston-Ozarbayjon mojarosi iqtisodiyotni va siyosiy munosabatlarni yomonlashuviga hamda bu siyosiy jarayon nafaqat bu ikki davlatga balki boshqa qo'shni mamlakatlarga salbiy ta'sir qilib kelardi. Armaniston tomonidan avtomobil va temir yo'llarning yopib qo'yilishi Ozarbayjonning Naxichevan Avtonom Respublikasini(NAR) iqtisodiy tomonlama zaif holatga olib keldi. Natijada Ozarbayjon Tog'li Qorabog' muammosini hal qilishga kirishdi va 2023 yilning 19-20 sentyabrda Tog'li Qorabog' muammosiga yechim topganligini e'lon qildi va Armaniston davlati bilan diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi.

Zangezur korridori Ozarbayjonning Boku shahridan boshlanib Turkiyaning Kars viloyatigacha savdo-alloqalarni yo'lga qo'yish va yo'l tarmog'ini qurish muhim bo'lgan korridor hisoblanadi. (Xarita 1). Undan tashqari bu korridor boshqa davlatlar bilan ham hamkorlikni yanada rivojlantirishiga juda katta hissa qo'shadi¹. Yangi yo'lakning afzalligi mintaqa mamlakatlari uning Janubiy Kavkaz mamlakatlari uchun iqtisodiy ta'siri bilan bog'liq va ularning qo'shni davlatlar bilan munosabatlari va Janubiy Kavkaz mintaqasining joylashuvi transport markazi sifatida hamda bu korridor Turkiy Davlatlar Tashkilotining (TDT) yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

¹ Worldview.stratfor.com, The Caucasus' Zangezur Corridor, June 27, 2012, Available at: <https://worldview.stratfor.com/article/caucasus-zangezur-corridor> (Accessed February 28, 2022)



Xarita 1. Zangezur koridorining joylashuvi² (Azvision)

Ushbu korridorning Ozarbayjon davlati uchun muhimligi

Armaniston bilan uzoq davom etgan mojarolar Ozarbayjonning NARsi aholisini oziq-ovqay tanqisligi, aholi sharoiti yomonlashuviga olib keldi³. Ularga Ozarbayjon tomonidan gumanitar yordam yuborish faqatgina Eron hududi orqali amalga oshirilardi va bu jarayon Ozarbayjonni Eron havo va quruqlik transporti yo'nalishiga bevosita qaram qilib qo'ygandi. Ushbu muammolarga yagona yechim bu Zangezur korridorini ochish edi. Chunki, ushbu yo'lining ochilishi birinchidan bevosita Ozarbayjon NARdagi iqtisodiy izolyatsiyaga barham berish, Ozarbayjonning g'arbiy hududlarida xavfsizlik muammolarini hal qilish imkonini beradi va ikkinchidan Eron transporti qaramligidan xalos qiladi.

Shu bilan birga, ushbu yangi yo'lak Ozarbayjonning boshqa davlatlar bilan quruqlik orqali savdo aloqalarni amalga oshirish imkonini beradi. Xususan, Turkiya davlati bilan quruqlik orqali savdo aloqalarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Natijada, Ozarbayjon davlati Yevropa bozoriga quruqlik orqali kirib borishi mumkin. Shu davrgacha Ozarbayjon-Turkiya savdo aloqalari uchinchi davlat (Eron yoki Gruziya) orqali amalga oshirilib kelinardi⁴. Ozarbayjondan Turkiyaga yo'nalish 343 kmni tashkil qiladi. Ushbu yo'lining ochilishi Boku-Tibilisi-Kars temir yo'llaridan⁵ samaraliroq va qisqaroq ekanligi ushbu ikki turkiy davlat tezkor aloqa o'rnatish

² Vahid. T., "If the Zangezur corridor is not opened, Lachin corridor can be closed", Azvision, November 18, 2021, Available at <https://en.azvision.az/news/151650/if-the-zangezur-corridor-is-not-opened,-lachin-corridor-can-be-closed-opinion.html> (Accessed March 1, 2022)

³ Presidential Library, "Nakhchivan Autonomous Republic, From ancient times until today", 2019, Available at: https://nakhchivan.preslib.az/en_b1.html (Accessed March 1, 2022)

⁴ Konarzewska. N., "Armenia and Azerbaijan at odds over Planned Transport Link", *Cacianalyst*, June 7, 2021, Available at: <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13674-armenia-and-azerbaijan-at-odds-over-planned-transport-link.html> (Accessed March 1, 2022)

⁵ News.milli.az, *Regional naqliyyat-kommunikatsiya sisteminin yeni qovshağı - Naxçıvan MR*, November 14, 2020, Available at: <https://news.milli.az/economy/897251.html> (Accessed March 2, 2022)



imkonini ham vujudga keltiradi. Ushbu yangi yo'lning ochilishi Turkiya va Ozarbayjon davlatlarining yanada samaraliroq, arzonroq hamda kuchliroq savdo aloqalarni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Buni ikki davlatning o'zi ham juda qattiq xohlamoqda.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti uchun ushbu yo'l ahamiyati

Ushbu korridorning ochilishi tashkilotga a'zo davlatlarning (xarita 2) integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantiradi. Shu davrgacha Turkiyaning boshqa a'zo davlatlar bilan to'g'ridan to'g'ri quruqlik orqali hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoni yo'q edi. Bu yo'l to'g'ridan to'g'ri Ozarbayjon va MO davlatlari bilan aloqalarni o'rnatish imkoni beradi. Undan tashqari, Markaziy Osiyodagi tashkilotga a'zo davlatlar bilan Ozarbayjon davlati to'g'ridan to'g'ri savdo aloqalarni amalga oshirib keladi⁶, lekin Ozarbayjon va Armaniston o'rtasidagi mojaro sabab, ushbu davlatlar Bokudan boshqa joyga o'tishi qiyin edi. Endi ushbu yo'l orqali nafaqat Turkiyaga, balki Yevropaning boshqa mamlakatlariga chiqish mumkin bo'ladi. Zangezur korridori ushbu tashkilotning iqtisodiy salohiyatini, rivojlanishini va integratsiyalashuvini yanada mustahkamlashga va savdo-alloqalarni tez va arzon amalga oshirishda ko'prik vazifasini bajaradi.

Zangezur yo'lagi Kaspiy dengizining ikki tomonini bog'lash orqali Osiyoni Yevropa bilan bog'lovchi O'rta koridorning kengayishiga olib keladi. Chigallashib borayotgan global geosiyosiy vaziyat, jumladan, Rossiya-Ukaraina, Isroil-Falastin harbiy qarama-qarshiligi va Xitoy-AQSh o'rtasida iqtisodiy raqobatning kuchayishi savdo aloqalarni quruqlik orqali amalga oshiruvchi yo'llarni ahamiyatini oshirishi mumkin. Shunday ekan, Zangezur korridori yaqin kelajakda Turkiy davlatlar, umuman Yevroosiyo bo'ylab integratsiyani yanada rivojlantirishiga juda katta ahamiyat kasb etadi.

⁶ Organization of Turkic States, "Organization of Turkic States", 2021, Available at: <https://www.turkkon.org/en/turk-konseyi-hakkinda> (Accessed March 8, 2022)



Turkiy Davlatlar Tashkiloti⁷ (TDT) a'zo davlatlar

Xulosa

Zangezur yo'lagining afzalliklariga oid tahlil qilingan barcha omillar shundan dalolat beradiki, Yevropa, Markaziy Osiyo va Xitoy va boshqa mintaqalarning bir-biri bilan bog'lovchi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanadi. Bu yo'lakning ochilishidan eng katta foyda ko'radigan davlat bu Ozarbayjon bo'ladi, chunki Ozarbayjonga ba'zi bir iqtisodiy muammolariga yechim topishda va Armaniston bilan mojaro sabab yakkalanib qolgan NARni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zangezur koridorining yana bir afzalligi Ozarbayjon Turkiya bilan qisqaroq va muqobil quruqlik-tranzit aloqasini shakllantirishdir. Undan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlari xususan, O'zbekiston uchun ham quruqlik orqali Yevropa bozorlariga chiqish imkonini beradi. Armanistonga keladigan bo'lsak, bu davlat qo'shni mamlakatlar bilan kelishga majbur, chunki yonidagi ikki mamlakat ham turkiy davlat hisoblanadi. Bu korridorni ochilishini qarshi chiqish o'rniga ular bilan yaqin munosabatda bo'lib, integratsiyani yo'lga qo'yish talab qilinadi. Shunday ekan, bu korridor nafaqat turkiy davlatlarga balki boshqa qo'shni mamlakatlarni savdo-alloqalarni yo'lga qo'yishda, iqtisodiy salohiyatini ko'tarishga va yaqin munosabatda bo'lishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

⁷ Silkroadbriefing.com, *The-Turkish-Council-2019*, September 27, 2019, Available at: <https://www.silkroadbriefing.com/news/2019/09/27/uzbekistan-joins-turkic-council/the-turkish-council-2019/>, (Accessed April 21, 2022)



1. Worldview.stratfor.com, The Caucasus' Zangezur Corridor, June 27, 2012, Available at: <https://worldview.stratfor.com/article/caucasus-zangezur-corridor> (Accessed February 28, 2022)
2. Vahid. T., "If the Zangezur corridor is not opened, Lachin corridor can be closed", Azvision, November 18, 2021, Available at <https://en.azvision.az/news/151650/if-the-zangezur-corridor-is-not-opened,-lachin-corridor-can-be-closed-opinion.html> (Accessed March 1, 2022)
3. Presidential Library, "Nakhchivan Autonomous Republic, From ancient times until today", 2019, Available at: https://nakhchivan.preslib.az/en_b1.html (Accessed March 1, 2022)
4. Konarzewska. N., "Armenia and Azerbaijan at odds over Planned Transport Link", *Cacianalyst*, June 7, 2021, Available at: <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13674-armenia-andazerbaijan-at-odds-over-planned-transport-link.html> (Accessed March 1, 2022)
5. News.milli.az, *Regional nəqliyyat-kommunikasiya sisteminin yeni qovşağı - Naxçıvan MR*, November 14, 2020, Available at: <https://news.milli.az/economy/897251.html> (Accessed March 2, 2022)
6. Organization of Turkic States, "Organization of Turkic States", 2021, Available at: <https://www.turkkon.org/en/turk-konseyi-hakkinda> (Accessed March 8, 2022)
7. Silkroadbriefing.com, *The-Turkish-Council-2019*, September 27, 2019, Available at: <https://www.silkroadbriefing.com/news/2019/09/27/uzbekistan-joins-turkic-council/the-turkish-council-2019/> , (Accessed April 21, 2022)